

TIBBIY TA'LIM TALABALARINING TIL KO'NIKMALARINI CLIL TEXNOLOGIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI

Meliqo'ziyeva Gulchehra Abdullajon qizi

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

"O'zbek va xorijiy tillar" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda tibbiy ta'lim talabalari uchun til ko'nikmalarini rivojlantirishda Content and Language Integrated Learning (CLIL) texnologiyasining samaradorligi o'rganiladi. CLIL texnologiyasi til o'rgatishning an'anaviy usullaridan farq qiladi, chunki u ma'lum bir sohaga oid kontentni o'rgatish bilan birgalikda tilni ham rivojlantirishni ta'minlaydi. Tadqiqotda, CLIL metodologiyasining tibbiyot ta'limi kontekstida qo'llanilishining ahamiyati, uning talabalar uchun tibbiy atamalarni ingliz tilida o'rganishdagi foydalari va bu metodning talabalarning kasbiy va lingvistik ko'nikmalarini qanday yaxshilashga yordam berishi ko'rsatiladi. Shuningdek, CLIL texnologiyasining o'quv jarayonida talabalarga ingliz tilidagi ilmiy materiallarni tushunish, tibbiy muloqot qilish va xalqaro ilmiy izlanishlarga qatnashish imkoniyatlarini yaratishi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari CLIL usulining tibbiyot ta'limida til ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali va innovatsion metod ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: CLIL, Integratsiya, Interaktiv metodlar, Texnologiyalarni qo'llash.

Tibbiy ta'lim tizimi global miqyosda rivojlanayotgan bir davrda, chet tili va kasbiy bilimlarning integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tibbiyot talabalari uchun ingliz tilini bilish zaruriyati ortmoqda, chunki ko'plab ilmiy manbalar va tibbiy adabiyotlar ingliz tilida chop etiladi. CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi bu muammoni hal qilishda samarali metod bo'lib, talabalarga tibbiyotning turli sohaları bo'yicha kontent o'rganish jarayonida til ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Ma'lumki, mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi ta'lim-tarbiya, shuningdek, tibbiyot sohasida yuqori samaradorlikka erishishga, ayniqsa, jahon ta'limi talablari bilan mosligi, amaliy hayotdagi o'rnini qay darajada topayotganligiga bog'liq. Ushbu metodda, tibbiyot talabalari nafaqat tilni o'rganadilar, balki amaliy bilimlar va kasbiy ko'nikmalarni ham o'zlashtiradilar.

CLIL texnologiyasini tibbiy ta'limda qo'llash uchun bir necha usullar mavjud bo'lib ko'p nomuvofiq ta'riflarni kelishilganlar bilan almashtirish bilan tavsiflanadi bu usullar quyidagicha amalga oshiriladi:

1. **Integratsiya:** Ingliz tilida o'rgatiladigan tibbiy materiallar, talabalarga faqat til ko'nikmalarini emas, balki kasbiy bilimlarni ham o'rgatadi. Misol uchun, anatomiya, fiziologiya yoki mikrobiologiya fanlaridan ingliz tilida darslar o'tkazish.

2. **Amaliy mashg'ulotlar:** Talabalar ingliz tilidagi tibbiy maqolalarni o'qish, tibbiy atamalarni o'rganish, ilmiy izlanishlar va tibbiy tadqiqotlarni bajarish orqali til ko'nikmalarini oshiradilar.

3. **Interaktiv metodlar:** Ingliz tilida soʻzlashishni ragʻbatlantirish uchun jamoaviy muhokamalar, seminarlar, interaktiv darslar tashkil etiladi.

4. **Texnologiyalarni qoʻllash:** Tibbiyot boʻyicha videolar, simulyatsiyalar, interaktiv dasturlar yordamida talabalar oʻz bilimlarini oshiradilar va til koʻnikmalarini amaliyotda mustahkamlashadi.

Natijalar

CLIL texnologiyasi asosida oʻtkazilgan tajribalar tibbiyot talabalari uchun bir qator ijobiy natijalar koʻrsatdi. Talabalar tibbiy sohada zarur boʻlgan ingliz tilidagi atamalarni oʻrganish, ilmiy va amaliy matnlarni tushunish koʻnikmalarini rivojlantirdilar. Shuningdek, ingliz tilida tibbiy mavzularda muhokama qilish, bemorlar bilan muloqot qilishda ishonchli va samarali boʻlish uchun zarur boʻlgan koʻnikmalarni egalladilar. Shuningdek, biz individual atamalardagi murakkab oʻzgarishlarni bir vaqtning oʻzida bir nechta jihatlarida qayd etamiz. Tibbiyot sohasida ishlaydigan mutaxassislar, ingliz tilida tez va aniq muloqot qilishga qodir boʻldilar.

Tahlil

CLIL texnologiyasining tibbiy taʼlimda qoʻllanishi nafaqat til koʻnikmalarini rivojlantirishda, balki talabalar uchun oʻz kasbiy bilimlarini kengaytirishda ham muhim rol oʻynaydi. Tibbiyot talabalari uchun ingliz tilini oʻrganish jarayoni, ularning klinik faoliyatida va ilmiy izlanishlarida qoʻllanilishi mumkin boʻlgan amaliy bilimlarni oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, CLIL metodologiyasi talabalar orasida tilni oʻrganishga boʻlgan qiziqishni kuchaytiradi va oʻquvchilarning motivatsiyasini oshiradi.

Xulosa

Tibbiy taʼlimda CLIL texnologiyasini qoʻllash, talabalar uchun ingliz tilini oʻrganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Bu metod yordamida talabalarning tibbiyot boʻyicha bilimlari hamda til koʻnikmalari bir vaqtda rivojlanadi, bu esa ularga kelajakda xalqaro ilmiy faoliyatda muvaffaqiyatli boʻlish imkonini yaratadi. CLIL texnologiyasi tibbiyot talabalari uchun zamonaviy va samarali taʼlim usuliga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press.
2. Marsh, D. (2002). *CLIL/EMILE – The European Dimension: Actions, Trends and Foresight Potential*. European Commission.
3. Baker, C., & Prys Jones, S. (1998). *Encyclopedia of Bilingualism and Bilingual Education*. Multilingual Matters.
4. Klimova, B. (2016). *Content and Language Integrated Learning (CLIL) in the Context of Higher Education*. Springer.
5. Pizorn, K. (2013). *The Role of CLIL in Teaching and Learning Languages in Higher Education*. Peter Lang.
6. Alpomish, T. (2023). Anatomik terminologiya haqida umumiy tushunchalar zamonaviy xalqaro anatomik terminologiya boʻyicha maʼlumotlar. *образование наука и инновационные идеи в мире*, 18(3), 13-16.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

7. Жураева, М. (2025). Lotin tilida tibbiyot ta'limida talabalarni klinik terminlar orqali professional ko'nikmalarini rivojlantirish. Лингвоспектр, 1(1), 222-227.
8. Mastura, J. (2023). THE PERIOD OF ASHTARKHANIES. Miasto Przyszłości, 42, 698-705.
9. Jurayeva, M. T. K. (2022). SOME OPINIONS ABOUT SOCIAL FORMS IN TEACHING GERMAN. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5-2), 372-376.
10. Mastura, J. (2023). MEDICINE OF ANCIENT ASIAN PEOPLES. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 405-411.
11. Yo'Lchiyev, Q., & Meliqo'Ziyeva, G. (2023). MARK TVEN ASARLARI VA ULARDA NUTQ SHAKLLARINING QO'LLANILISH USLUBI. Экономика и социум, (5-1 (108)), 196-198.
12. Melikuzieva, G. (2024). THE ADVENTURES OF TOM SAWYER. FORMS OF MONOLOGIC SPEECH. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(1), 673-677.
13. Meliqo'Ziyeva, G. A. Q. (2022). "TOM SOYERNING SARGUZASHTLARI" ROMANIDA MONOLOGIK NUTQ SHAKLLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 451-454.
14. Меликузиева, Г. (2025). CLIL metodining afzalliklari va kamchiliklari. Лингвоспектр, 1(1), 228-233.
15. Пакирдинова, Ш., & Йигиталиева, Н. (2023). МОТИВАЦИЯ СЛУШАНИЯ, ИНТЕРЕС И ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ УВЕРЕННОСТЬ В СЕБЕ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА.
16. Yigitaliyeva, N. (2023). PEDIATRIYADA SIMULYATSIYADAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI. Talqin va tadqiqotlar, 1(8).
17. Кадырова, М., & Йигиталиева, Н. (2024). Simulation technologies as a modern method of teaching English to medical students at higher education institution. Общество и инновации, 5(5), 26-31.